

Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalariga bag'ishlangan anjuman o'tkaziladi

Buyuk mutafakkir, so'z mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 579 yilligi munosabati bilan joriy yil 7-fevral kuni soat 10:00da O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Yozuvchilar uyushmasi hamda FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamkorligida Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalariga bag'ishlangan anjuman o'tkaziladi.

Manzil: Shahrizabz tor ko'chasi, 5 uy, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti majlislar zali.